

Yusufjonov Bahrom Yo‘ldoshovich

Ilmiy izlanuvchi, O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti, Xalqaro munosabatlar yo‘nalishi 2-kurs talabasi

KORPORATIV BOSHQARUV TIZIMIDA ICHKI AUDITNI TASHKIL ETISHNING NAZARIY-ILMIYASOSLARI

ANNOTATSIIYA: Bugungi kunda iqtisodiyotni shiddat bilan globallashtirish va iqtisodiy integratsion jarayonlarining kengayib borishi korxonalarini boshqarishning eng samarali shakl va usullaridan foydalanishni talab etmoqda. Bunda korporativ boshqaruvga asoslangan korxonalar alohida ahamiyat kasb etadi va ularni salmog‘ini oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Ammo tahlillardan ko‘rinadiki, hozirgi kunda korporativ boshqaruv (KB) tizimini kengaytirish nafaqat O‘zbekiston, balki xorijiy kompaniyalar uchun ham dolzarbligicha qolmoqda. Ayni vaqtda mamlakatimizda bozor va bozor infratuzulmasi rivojlanayotgan bir vaqtda aynan korporativ boshqaruv sifati hamda moliyaviy hisob-kitoblarning aniqligi, to‘g‘riligi va holisligi kreditorlar hamda investorlar investitsiya maqsadlarini tanlashida boshqaradigan mezonga aylanadi.

Kalit so‘zlar: Bozor modeli, korporativ boshqaruv, moliyaviy barqarorlik, audit siyosati.

“Negaki, manfaatlar ustuni sifatida tan olingan bozor modeli avvalo aniq hisob-kitoblar algoritmini, ularni baholashni va chuqur tahliliy yechimlarni talab etadi”¹. Chunki, moliyaviy raqobatdoshlikka va to‘g‘ri moliyaviy siyosatni yuritishga korxonalar foydasini maksimallashtirish, kapital tarkibini optimallashtirish va uning moliyaviy barqarorligini ta‘minlash, mulkdorlar, investorlar va kreditorlar uchun moliyaviy holatning jozibadorligini oshirish, korxonalar boshqaruvi yuzasidan samarali mexanizmni shakllantirishda bozor mexanizmining barcha imkoniyatlaridan foydalanish orqaligina erishish mumkin. Shu sababli ham korporativ boshqaruv tizimidagi korxonalarda ichki auditni xalqaro standartlar va talablar asosida tashkil etilishini o‘rganib borish zarur. Ichki audit funktsiyasi boshqaruv bo‘g‘ini (maxsus tuzilgan ichki tarkibiy bo‘linma) tomonidan amalga oshiriladi, uning tomonidan rahbariyatga ichki nazorat tizimining samarali faoliyat yuritishi, iqtisodiy resurslardan samarali foydalanish bo‘yicha tavsiyalar beriladi. Zero, ichki auditning maqsadi – bu tavsiyalarni tuzish, rahbariyat tomonidan hisobga olinadigan majburiy tadbir hisoblanadi.

Korporativ boshqaruv tizimidagi korxonalarda ichki auditni xalqaro talablar va standartlar asosida tashkil etilishini o‘rganish va tadqiq etishning bugungi kundagi dolzarbligi, ahamiyati O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2020 yil 24 fevraldagi PQ-4611-son Qaroriining qabul qilinishi bilan ham asoslanadi. Xususan, “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga (keyingi o‘rinlarda — MHXS) o‘tishni jadallashtirish orqali xorijiy investorlarni zarur axborot muhiti bilan ta‘minlash va xalqaro moliya bozorlariga kirish imkoniyatlarini kengaytirish, shuningdek, hisob va audit sohalari mutaxassislarini xalqaro standartlar bo‘yicha tayyorlash tizimini takomillashtirish”² davr talabi hisoblanadi.

¹Raximov M.Y. Iqtisodiyot subyektlarini moliyaviy holatining tahlili. T.: Moliya – iqtisod, 2015. – 316 b.

²O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi 2020 yil 24 fevraldagi PQ-4611-son Qarori. www.lex.uz

Korporativ boshqaruv tizimida ichki auditning nazariy asoslari, monografik kuzatuv, analiz va sintez usullari, mantiqiy tafakkur yordamida tadqiq etiladi.

“Korporativ boshqaruv tushunchasi” uchun yagona ta’rif mavjud emas. Jahon bankining ta’rifiga ko’ra, korporativ boshqaruv deganda qonunchilik, me’yorlar va xususiy sektorning mos ravishdagi amaliyotining shunday birikmasi tushuniladiki, ular kompaniyaga moliyaviy va inson resurslarini jalb qilish, samarali faoliyatni olib borishga imkoniyat beradi va oqibatda aksiyadorlar boshqa manfaatdor shaxslar va jamiyatning manfaatlariga rioya qilingan holda o’z aksiyadorlari uchun uzoq muddatli iqtisodiy qiymatni ko’paytirish orqali o’zining mavjudligini saqlab qolishni ta’minlaydi.³ Ushbu ta’rifdan ko’rinadiki, bugungi zamonaviy iqtisodiyotda korporativ boshqaruv tizimidagi korxonalarda ichki auditni xalqaro standartlar asosida tashkil etish davr talabi hisoblanadi.

Aynan, bugun ichki audit korxonaning korporativ boshqaruv tizimining asosiy bo’g’inlaridan biriga aylanib ulgurdi. Ichki audit potensial investorlar uchun ham ijobiy ustunlik bo’lib, korxonaning investitsion jozibadorligini oshirish uchun xizmat qiladi. Bundan tashqari, kompaniyalarda ichki audit tizimini tashkil qilish aksioner (mulkdorlar) va rahbariyatning manfaatlari va xavfsizligini himoya qilishga yordam beradi, xatolar va talon-tarojliklardan ogohlantiradi, eng katta xatolar hamda kelajakda korxonalar uchun bo’ladigan xavflarni bartaraf qilish imkonini beradi, zaif tomonlarini aniqlashga va boshqaruv tamoyillarini rivojlantirishga yordam beradi. Ichki auditning korporativ boshqaruvga asoslangan korxonalarda mavjudligi boshqaruvni professional menejerlarga ishonib topshiruvchi aksioner (mulkdorlar) uchun muhim omil hisoblanadi. Tadqiqotlarimiz ko’rsatadiki, korporativ boshqaruv tizimidagi korxonalarda ichki auditni tashkil etishning bir qator muammolar kuzatiladi:

- birinchidan, ichki audit xizmatlariga ishonch darajasi past bo’lib, ichki auditorlik tekshiruviga hisobning yuritilishi va hisobotlarning tuzilish holatining haqqoniyligini ta’minlashning kafolati emas, balki ortiqcha va malol keladigan ma’muriy tartib-taomil sifatida qaralmoqda;
- ikkinchidan, tashqi audit tekshiruvida ichki audit xizmatining sifati va xulosalarining inobatga olinmasligi;
- uchinchidan, ichki auditorlarni maxsus tayyorlash va ularning malakasini oshirishning amaldagi tizimini xalqaro talablarga moslashtirish bo’yicha nazariy-uslubiy asoslarning yetarli emasligi;
- to’rtinchidan, auditorlik faoliyatining milliy standartlari umume’tirof etilgan xalqaro audit standartlariga to’liq mos emasligi, bu esa xorijiy investorlarda mahalliy korxonalar moliyaviy hisobotlarining haqqoniyligini tushunish ko’nikmasining shakllanishini ta’minlamasligi.

Shuningdek, samarali korporativ boshqaruvini shakllantirishda ichki auditning dolzarbligi rahbariyat va mulkdorlar bilan o’zaro munosabatlarning qonunchilik bazasi yetarli darajada ishlab chiqilmaganligi va korporativ nizolarni bartaraf qilish tartibi bilan chambarchas bog’liq.

Yuqorida qayd etilgan muammolarni yechimini topishda korporativ boshqaruv tizimida ichki auditning nazariy va uslubiy asoslari bo’yicha ilmiy manbalarni yaratish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Chunki, ichki audit-bu faoliyat bo’yicha mustaqil, ob’ektiv tasdiqlash va maslahat berish, aksioner qiymatini oshirish yo’nalishi va korxonalar xo’jalik faoliyatini takomillashtirish yo’llarini axtarib topish, chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish imkoniyatini yaratadi. Natijada

³B. Yu. Xodiyev, R. X. Karlibayeva, N. I. Akramova. Korporativ boshqaruv. O’quv qo’llanma, T.: -Cho’lpon, 2011. 9-bet

ichki audit korxonani qo'yilgan maqsadga erishishi uchun, baholashga tizimli va ketma-ket yondashuv va risklarni boshqarish jarayonlari samarasini oshirish, ichki nazorat va korporativ boshqarishga yordam beradi.

Aynan sohaga tegishli nazariy-ilmiy va uslubiy manbalarni o'rganish natijasida korporativ boshqaruv tizimidagi rahbarlar, ta'sischilar ichki auditning maqsad va vazifalari haqida bilimlarga, axborotlarga ega bo'ladilar va ushbu faoliyatni maqsadli, samarali tashkil etishga, uning imkoniyatlaridan to'liq foydalanishga erishadilar.

Korporativ boshqarish tizimidagi korxonalarda ichki auditni xalqaro standartlar asosida samarali tashkil etishda nazariy-ilmiy asoslarni takomillashtirish ichki auditning metodologiyasini ham takomillashtirishga olib keladi. Korporativ boshqaruv tizimida ichki audit metodologiyasini xalqaro amaliyot va mahalliy tajribalarga tayangan holda takomillashtirish, iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga va ijtimoiy ahvolini yaxshilashga xizmat qiladi.

Ichki audit faoliyati biznesning moslashuvchanligi, disiptsiyasi va reaksiyasini ta'minlashga qaratilgan bo'lishi kerak va asosiy vazifa taktik va strategik boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun zarur bo'lgan axborotni boshqarish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Raximov M.Y. Iqtisodiyot subyektlari moliyaviy holatining tahlili. T.: Moliya – iqtisod, 2015.- 316 b.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi 2020 yil 24 fevraldagi PQ-4611-son Qarori. www.lex.uz
3. B.Yu.Xodiyev, R.X.Karlibayeva, N.I.Akramova. Korporativ boshqaruv. O'quv qo'llanma, T.: Cho'lpon, 2011. 9-bet